

NAVOIY VILOYATI ZIYORATGOHLARI: TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Kamolova Madinabonu Kamol qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Tarix yo'nalishi I-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17720284>

Anotatsiya: O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritganidan keyin yurtimiz, xalqimiz tarixini chuqur o'rganish, uni ilmiy asosda haqqoniy tadqiq etish, qadimiy manbalarni xolislik bilan asl holida tiklash, davlatchilik tarixining ildizlarini ochib berish respublikamiz madaniy-ma'naviy hayotidagi asosiy masalalardan biriga aylandi. Shu asosda O'zbekistonda tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilishning huquqiy asoslari yaratildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va boshqa qator qonunchilik hujjatlarida davlat idoralari va fuqarolarning bu boradagi burch va vazifalari aniq-ravshan ko'rsatib berildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 61-moddasida quyidagilar ta'kidlangan: "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini avaylab-asrashi shart. Tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi".

Kalit so'zlar: madaniy mezos, obida, yodgorlik, ziyoratgoh, restovratsiya, shaxarsozlik, turizmni rivojlantirish.

"Milliy tarixni milliy rux bilan yaratish kerak.

Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi"

Sh.Mirziyoyev.

"Madaniyat merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2002-yil 4-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi shaharsozlik kodeksi" kabilar tarixiy-madaniy va me'moriy yodgorliklarni muhofaza qilinishining huquqiy negizi bo'lib xizmat qilmoqda. Tarixiy va madaniy yodgorliklarning holatini doimiy ravishda nazorat qilib borish, bu boradagi ayrim negativ hollarni oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va viloyatlar hokimliklari qoshida tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish davlat inspeksiyasi tashkil etildi.

1996-yil aprel oyida O'zbekiston "Butunjahon madaniyat va tabiat merosini saqlash konvensiyasi"ga qabul qilindi. Mazkur konvensiyaning umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan boyliklarini hisobga olish "Butunjahon merosi ro'yxati"ga 1996-yil iyun oyida respublikaning 22 ta tarixiy yodgorligi ro'yxati yuborildi. Bu davrda O'zbekiston moddiy-madaniy merosini o'rganish, muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalarini nazorat qiluvchi davlat muassasalari qayta tashkil etildi va faoliyati takomillashtirildi. Misol tariqasida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi huzuridagi "Madaniy meros departamenti", "O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish Davlat qo'mitasi"ning milliy me'moriy merosni asrash va ulardan foydalanishga oid faoliyatini ko'rsatib o'tish mumkin. Mazkur muassasalar rahbarligida davlat muhofazasiga olinishi zarur bo'lgan yodgorliklar ro'yxati kengaytirildi. Shu paytga qadar etarlicha o'rganilmagan yodgorliklarda ilmiy tadqiqotlar olib borish, ularni tiklash va ulardan respublika iqtisodiy salohiyatini oshirib, turizmni rivojlantirishda keng

foydalanishni yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risidagi davlat dasturlari ishlab chiqildi. Shu munosabat bilan, tarixiy-me'moriy yodgorliklar va shaharsozlik ob'ektlarini qamrab olgan xalqaro sayyohlik yo'nalishlari yo'lga qo'yildi. Navoiy viloyatida ushbu dolzarb masalalar bo'yicha ko'plab xalqaro anjumanlar va ilmiy tadbirlar tashkil etildi.

Navoiy viloyatidagi mavjud tarixiy - madaniy ob'ektlar ham O'zbekiston va jahon tarixida muhim ahamiyatga ega tarixiy yodgorliklar hisoblanadi. Viloyatdagi tarixiy-me'moriy obidalarini tarixini o'rganish, ularni asrab-avaylash va xalqaro targ'ib qilish va shu asosda viloyatda sayyohlik hamda turizmni rivojlantirishga, shuningdek viloyatimiz iqtisodini rivojlantirishga samarali hissa qo'shish masalalari biz olib borayotgan tadqiqot ishimizning asosini tashkil etadi.

Navoiy viloyatida mavjud tarixiy - madaniy ob'ektlar ham O'zbekiston va jahon tarixida muhim ahamiyatga ega tarixiy yodgorliklar hisoblanadi. Viloyatdagi tarixiy-me'moriy obidalarini ta'mirlash, asrab-avaylash va xalqaro targ'ib qilish masalalari O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng sezilarli ravishda jonlandi.

Jumladan, Markaziy Osiyo madaniyatining noyob yodgorliklari Raboti Malik, Sardoba, Mir Sayyid Bahrom, Qosim Shayx, Xo'ja Xisrav, Mirzachorbog' kabi tarixiy obidalar qaytadan ta'mirlanib, minglab sayyohlarni o'ziga chorlaydigan tabarruk ziyoratgoh joylarga aylantirilishi uchun harakatlar boshlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Azim Zarafshon vohasida, behisob tabiiy boyliklar makoni bo'lgan Qizilqum mintaqasida joylashgan Navoiy viloyati, ta'bir joiz bo'lsa, mamlakatimizning duru-javohirlar xazinasidir".

Navoiy viloyati hududi nafaqat hozirgi O'zbekiston, balki Markaziy Osiyoda ham muhim savdo yo'llari kesishgan, o'zida qulay tranzit va logistika imkoniyatlarini mujassam etgan Buyuk ipak yo'lining asosiy tarmoqlarini birlashtirgan, shuningdek, Samarqand va Buxoro kabi yirik savdo-iqtisodiy va madaniyat markazlari oralig'idagi, ularni bog'lab turgan qadimiy tarixga ega makon sifatida ma'lum. Xuddi shu omillar mazkur hududning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida muhim asos bo'lgan.

O'tgan qisqa davr ichida Navoiy viloyatidagi tarixiy va madaniy ob'ektlarni obod qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar boshlab yuborildi. Tarixiy-madaniy muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlarni ta'mirlash jarayoni bosqichma-bosqich o'rganilib, ta'mirlash, restavrasiya qilish ishlari amalga oshirildi va tadbir etish jarayonlari boshlandi.

Ularni o'rganish jarayonida, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligining 2019-yil 28-iyundagi 401 sonli qaroriga muvofiq Navoiy viloyati bo'yicha moddiy-ma'naviy meros ob'ektlarining davlat kadastriga kiritilgan va yangilangan ro'yxati e'lon qilindi. Jumladan, jami 437 ta madaniy meros ob'ektlari ro'yxatga olinib, shundan 340 tasi arxeologik madaniy meros ob'ektlari, 70 tasi arxitektura madaniy meros ob'ektlari, 22 tasi monumental madaniy meros ob'ektlari, 5 tasi diqatga sazovor madaniy maros ob'ektlari hisoblanadi (jadval).

T/R	Obyektning soni	Obyektning turi	Obyektning toifasi
Navoiy shaxar			
1	4 ta	Monomental yodgorliklar	Respublika 3 ta Mahalliy 1ta
Zarafshon shaxar			
2	2 ta	Arxetektura yodgorliklari	Respublika

	2 ta	Monumental san'at yodgorliklari	Respublika
Karmana tumani			
3	29 ta	Arxeologiya yodgorliklari	Respublika
	12 ta	Arxitektura yodgorliklari	Respublika
	1 ta	Monumental san'at yodgorliklari	Respublika
	2 ta	Diqqatga sazovor joylar	Respublika
Navbahor tumani			
4	49 ta	Arxeologiya yodgorliklari	Respublika
	3 ta	Arxitektura yodgorliklari	Respublika
Konimex tumani			
5	15 ta	Arxeologiya yodgorliklari	Respublika
	3 ta	Arxitektura yodgorliklari	Respublika
	3 ta	Monumental san'at yodgorliklari	Respublika
Qiziltepa tumani			
6	57 ta	Arxeologiya yodgorliklari	Respublika
	16 ta	Arxitektura yodgorliklari	Respublika
Nurota tumani			
7	37 ta	Arxeologiya yodgorliklari	Respublika
	11 ta	Arxitektura yodgorliklari	Respublika
	3 ta	Monumental san'at yodgorliklari	Respublika
	2 ta	Diqqatga sazovor joylar	Respublika
Xatirchi tumani			
8	83 ta	Arxeologiya yodgorliklari	Respublika
	19 ta	Arxitektura yodgorliklari	Respublika
	3 ta	Monumental san'at yodgorliklari	Respublika
Uchquduq tumani			
9	38 ta	Arxeologiya yodgorliklari	Respublika
	4 ta	Arxitektura yodgorliklari	Respublika
	1 ta	Monumental san'at yodgorliklari	Respublika
	1 ta	Diqqatga sazovor joylar	Respublika
Tomdi tumani			
10	32 ta	Arxeologiya yodgorliklari	Respublika
	5 ta	Monumental san'at yodgorliklari	Respublika

Xulosa: Navoiy viloyati hududi, Markaziy Osiyoning eng qadimgi shaharlaridan Buxoro va Samarqand o'rtasida alohida strategik ahamiyatga ega hudud hisoblanadi. Karmana G'arb bilan Sharqni bog'lovchi qadimiy karvon yo'lining asosiy chorrahasida joylashganligini ushbu hududdagi qadimiy inshootlar, bozor va karvonsaroylarning mavjudligi ham tasdiqlaydi. Bugungi Navoiy viloyati hududiy jihatdan Respublikadagi eng katta viloyatlardan bo'lib, bu erning tarixi va madaniyati bevosita Buxoro va Samarqand tarixi bilan chambarchas bog'liq. Shu sababdan Karmana hududidagi tarixiy yodgorliklar va inshootlarining yoshi va qurilish strukturasi ham Buxoro va Samarqand me'moriy yodgorliklari bilan uyg'un holatda deb ayta olamiz. Buni ushbu yodgorliklarning tarixiga oid ilmiy tadqiqotlar ham tasdiqlaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2023-yil.
2. K.M Yo'ldoshev., J.F.Savriyev. "Karmana tumani arxeologik yodgorliklari". Toshkent: Bookmany print, 2025-yil.